



NATURAL MONUMENTS OF MOLGUZAR MOUNTAIN AND ITS IMPORTANCE IN THE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM

Laziza Mominova

Student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Molguzar mountains, natural monuments, ecotourism, classification of natural monuments: geological, paleontological, geographical, biological and archaeological natural monuments.

Abstract: In this article, the importance of natural monuments of Molguzar mountains in the development of ecotourism was comprehensively studied and analyzed.

Received: 25.07.24

Accepted: 27.07.24

Published: 29.07.24

MOLGUZAR TOG'INING TABIIY YODGORLIKHLARI VA UNING EKOTURIZM RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Laziza Mo'minova

Talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

МАҚОЛА ХАҚИДА

Kalit so'zlar: Molguzar tog'lari, tabiiy yodgorliklar, ekoturizm, tabiiy yodgorliklar klassifikatsiyasi: geologik, paleontologik, geografik, biologik va arxeologik tabiiy yodgorliklar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Molguzar tog'larining ekoturizmni rivojlantirishda tabiiy yodgorliklarni ahamiyati kompleks ravishda o'rganildi va tahlil qilingan.

ПАМЯТНИКИ ПРИРОДЫ ГОРЫ МОЛГУЗАР И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА

Лазиза Моминова

Студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молгузарские горы, памятники природы, экотуризм, классификация памятников природы: геологические, палеонтологические, географические, биологические и археологические памятники природы.

Аннотация: В данной статье всесторонне изучено и проанализировано значение природных памятников Молгузарских гор в развитии экотуризма.

KIRISH

Turkiston tizmasi Zominsuv daryosining boshlanadigan qismida, ya’ni G‘o‘ralash dovonida 2 ta tarmoqqa, Molguzar va Chumqortog‘ tog‘lariga bo‘linib ketadi. Bu tog‘lar o‘rtasida go‘zal tabiat bilan mashhur bo‘lgan Sangzor vodiysi joylashgan.

Molguzar tog‘lari G‘o‘ralash dovonidan Ilon O‘tdi darasiga qadar 75 km masofaga cho‘zilgan. Tog‘ning eng baland nuqtasi Sho‘rbel dovoni bo‘lib, mutloq balandligi 2620 m ni tashkil etadi. Molguzar tog‘lari tabiatining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, tog‘ning tabiiy yodgorliklari va uning o‘ziga xos xususiyatlari, ekoturizni rivojlantirishdagi ahamiyati kompleks ravishda o‘rganish lozimdir.

ASOSIY QISM

Molguzar tog‘larining eng sharqiy nuqtasi G‘o‘ralash dovoni hisoblanadi. G‘o‘ralash dovonining balandligi 2710 m bo‘lib, Zomin va Baxmal tumanlarini avtomagistral yo‘li bilan tutashtirib turadi. G‘o‘ralash dovoni orqali Zomindan Baxmal tumaniga o‘tishda, chap tomonda Zomin sharsharasi joylashgan bo‘lib, Molguzar tog‘ining shimoliy yonbag‘ridagi buloq suvlarining to‘planishidan hosil bo‘ladi. Zomin sharsharasi 25 m balandlikdan oqib tushadi va o‘zing jozibadorligi bilan ajralib turadi. Sharsharadan yo‘l bo‘ylab biroz yuqoriga chiqilganda Sherbuloq bulog‘i keladi. Sherbuloq suvi tarkibida kalsiy moddasining yuqoriligi uchun sovutilgan sutning shirin tami keladi. Sherbuloqdan yo‘l bo‘ylab yana yuqoriga ko‘tarilsa, qadimiylar 1000 yoshli archaga boriladi. Odatda, tabiatda archalar juda sekin o‘sadi va o‘sishi yiliga 1-1,5 sm ni tashkil qiladi. Ushbu ming yillik archa tabiatning turli sinovlariga, qishning qahraton sovuqlari va yozning jazirama issiqlari hamda turli inson omillari ta’siriga bardosh berib ming yosha kirgan. O‘zining tabiiy shaklini qisman yo‘qotayotgan va hozirda yubiley yoshga kirgan bunday daraxtlar, nafaqat Molguzar tog‘ining, balki O‘zbekistonning ham tabiiy me’rosi hisoblanadi.

Ming yoshli archa atrofini qalin archazor qoplagan. Tosh ustida o‘suvchi bu daraxtlar yuzlab katta-kichik buloqlarning onasi hisoblanadi. Mutaxassislar ta’kidlashiga ko‘ra, bir tup archa tomirlari atrofida 2 tonnagacha suv to‘planar ekan. Qolaversa, bu daraxtning voyaga yetgani bir sutkada bir qishloqqa yetgulik kislorod ishlab chiqaradi. Archazorlarning umumiyligi maydoni 13 ming hektarni tashkil etishi ham havoning kislorod bilan qanchalik to‘yinganligini ko‘rsatib turibdi. Archadan ajraladigan fitonsetlar bronxial astma singari nafas yo‘llari hamda qator allergik kasalliklarga davo sanaladi. Eng jazirama kunlari havo haroratining 29° C bo‘lishi, kechasi esa 12-

18⁰ C gacha tushib ketishi tanaga orom baxsh etadi. Tunda yoz kiyimida bo‘lsangiz, etingiz sovuqdan junjikadi.

Yo‘lning o‘ng tomonida esa, mashhur Suffa platosi, to‘rtta daradan iborat Chortangi va qolaversa, o‘rmon xo‘jaligi xodimlari tomonidan 2700 m balandda barpo qilingan archazorlarni kuzatish mumkin. G‘o‘ralash dovonи O‘zbekiston va Tojikiston respublikalarining davlat chegaralariga yaqinligi tufayli, so‘nggi o‘n yillikda maxsus ruxsatnomalar orqali o‘tilar edi. 2018 yildan boshlab dovondan o‘tishdagi sun’iy to‘sıqlar olib tashlandi. Natijada, Zomin tabiat milliy bog‘iga Samarqand-Baxmal-Zomin yo‘nalishida keluvchi xorijiy sayyoohlar oqimi sezilarli darajada ko‘paydi.

Turkiston tizmasi landshaftlarining ajoyib, diqqatga sazovar joylarini saqlab qolishda tabiiy yodgorliklarni muhofazaga olish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ilmiy, madaniy, tarixiy va estetik jihatdan qimmatli, ajoyib, noyob tabiatli joylarni muhofaza qilib, saqlab qolish uchun katta maydonni egallovchi qo‘rixona yoki buyurtmaxonalar barpo etish shart emas. Ularni maydoni juda kichik bo‘lgan “tabiiy yodgorliklar” sifatida ro‘yxatga olib, muhofaza qilish mumkin.

Tabiiy yodgorliklar deganda biz g‘orlarni, karstlarni, sharshara va shovalarni, ajoyib buloq, jilg‘a va soylarni, daralarni, qoyali relyef shakllarini, ochilib qolgan yotqiziplarni, toshqotgan hayvonlarni va tabiatning boshqa noyob ko‘rinishlarini tushunamiz (P Baratov, 1996).

Molguzar tog‘i hududida 150 dan ortiq tabiiy yodgorliklar mavjud. Ularning ko‘pchiligi ro‘yxatga olinmaganligi tufayli holati yomonlashib bormoqda. Tog‘ hududida mavjud bo‘lgan, bu tabiat yodgorliklarni zudlik bilan nazoratga olish zarur.

Molguzar tog‘i tabiiy yodgorliklari xususiyatlariga qarab geologik, paleontologik, geografik, biologik va arxeologik turlarga bo‘linadi (1- jadvalga qarang).

Geologik yodgorliklarga tabiatda ochilib qolgan tog‘ jinslari, karstlar, g‘orlar, issiq suvli mineral buloqlar kabilar kiradi. Molguzar tog‘idagi Suffa platosi, Sayxonsoy qoyalari, Qizilmazor darasidagi karst jarayonlari, Peshog‘ar, Yettikechuv va Amir Temur g‘orlari yaqqol misoldir.

Paleontologik yodgorliklarga toshga aylangan, lekin izlari yaxshi saqlangan o‘simlik va hayvon qoldiqlari uchraydigan joylar kiradi. Geografik yodgorliklar juda ko‘p bo‘lib, unga ajoyib qoyalar, sharshara va shovalar, daralar, tanglar, buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Zominsuv havzasidagi Chortangi qoyalari, Qizilsoy soyligidagi Esmeralda sharsharasi, Zomin sharsharasi, Tangi darasi, Sherbuluoq, Niyatbuluoq, O‘riklisoy va boshqalar kiradi.

Biologik yodgorliklarga noyob, turi yo‘qolib borayotgan o‘simliklar, uzoq yil o‘sayotgan daraxtlar, tik yonbag‘irlarda va qumlar orasida saqlanib qolgan o‘simliklar ham kiradi. Zomin milliy tabiat bog‘i hududidagi Ming yoshli archa, 700 yoshli Boboyong‘oq, Ko‘rpasoydagi 800 yoshli Qadimgi Yong‘oq va Yettikechuvdagagi 300 yoshli shumtol biologik yodgorliklarga misol bo‘ladi.

Molguzar tog‘i tabiiy yodgorliklar klassifikatsiyasi

1-jadval

t/r	Tabiiy yodgorliklar bo‘linishi	Tabiiy yodgorlik xususiyatlari	Tabiiy yodgorliklar	Tabiiy yodgorliklar soni
1	Geologik	Tabiatda ochilib qolgan tog‘ jinslari, karstlar, g‘orlar, issiq suvli mineral buloqlar	Suffa platosi, Sayxonsov qoyalari, Qizilmozor dara-sidagi karst jarayonlari, Peshog‘ar va Amir Temur g‘orlar	30 ta
2	Paleontologik	Toshga aylangan, lekin izlari yaxshi saqlangan o‘simgilik va hayvon qoldiqlari	Qirq qiz, tosh ustun, Uch qiz	20 ta
3	Geografik	Ajoyib qoyalari, sharshara va shovalar, daralar, tanglar, buloqlar, xushmanzara joylar	Chortangi qoyalari, Zomin sharsharasi, Esmeralda shar-sharasi, Tangi, Sherbuloq, Niyatbuloq, O‘riklisoy	50 ta
4	Biologik	Noyob, turi yo‘qolib borayotgan o‘simgiliklar, uzoq yil o‘sayotgan daraxtlar, tik yonbag‘irlarda va qumlar orasida saqlanib qolgan o‘simgiliklar	Ming yoshli archa, 700 yoshli Boboyong‘oq, Ko‘rpasoydagi 800 yoshli yong‘oq, Yettikechuvdagi 300 yoshli shumtol	30 ta
5	Arxeologik	Qadimgi manzilgoh joy-lar, qadimiy shahar qoldiqlari, sug‘orish inshootlari, quduqlar, sardobalar, korizlar, bandlar kiradi. Bunga Yettikechuv darasidagi Miq qa’lasi, Xonbandi to‘g‘oni, Oqtoshsoydag‘i bronza davrida ibtidoiy odam chizgan rasmlar galereyasi yaqqol misoldir.	Yettikechuv darasidagi Miq qa’lasi, Xonbandi to‘g‘oni, Koriz qishloqdagi koriz quduq qoldiqlari	20 ta

Arxeologik yodgorliklarga qadimgi manzilgoh joylar, qadimiy shahar qoldiqlari, sug‘orish inshootlari, quduqlar, sardobalar, korizlar, bandlar kiradi. Bunga Yettikechuv darasidagi Miq qa’lasi, Xonbandi to‘g‘oni, Oqtoshsoydag‘i bronza davrida ibtidoiy odam chizgan rasmlar galereyasi yaqqol misoldir.

Hozirgi kunda Molguzar tog‘idagi noyob tabiiy yodgorliklarni sof holda saqlab qolish orqali, kelgusida ekoturizm ob’ekti sifatida foydalanish imkonini beradi. Buning sababi, tabiiy yodgorliklar noyob xususiyatlari va jozibadorligi orqali doimo sayyoohlarni o‘ziga jalb qilib kelgan.

XULOSA

Molguzar tog‘ining noyob resurslaridan biri hisoblangan tabiiy yodgorliklarni muhofaza qilish va tog‘ turizmi ob’ekti sifatida foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Molguzar tog‘ida balandlik mintaqalari bo‘yicha tabiiy yodgorliklarni ekoturizmni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan nazariyalarni amaliyatga tadbiq qilishda “O‘zbek turizm” bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- internet tarmog‘ida xozirga qadar, Molguzar tog‘laridagi tabiiy yodgorliklarni rekratsion resurs sifatida yoritib boruvchi birorta ham sayt yaratilmagan. Yangi sayt yaratib, Molguzar tog‘larning brendi bo‘lgan tog‘ turizm faoliyatini doimiy ravishda yoritib borish va dam olish joylarini oldindan band qilish hamda elektron to‘lov yo‘llarini ham yo‘lga qo‘yish lozim. Saytdagi ma’lumotlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida berib borish orqali saytdan foydalanuvchilarni sonini bir necha barobarga oshirish imkonini beradi;
- Molguzar tog‘ida xorijlik turistlarga xizmat qiladigan va bir qancha xorijiy tillarni mukammal biladigan gidlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- hududdagi Sangzor va Zominsoy daryo havzalarini har tomonlama o‘rgangan holda, daryo bo‘ylab sayr qilish, cho‘milish va baliq ovlashni o‘z ichiga olgan, daryo turizmini ham rivojlantirish;
- Molguzar tog‘i relyefini o‘rgangan holda, qoyali joylarda alpinizm, ochiq ylangli joylarda chang‘i, daryolarning ostonalari kam bo‘lgan joylar qayiqda suzish sport turlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu yo‘llar orqali ko‘plab turistlarni jalg qilish imkoniyati paydo bo‘ladi;
- tog‘larning o‘rtacha balandliklarida tibbiyot xizmatini yo‘lga qo‘yish muhim. Tog‘ning yuqori balandliklariga xarakatlanuvchi turistlarni qon bosimi bilan bog‘liq kasalliklar besovta qiladigan bo‘lsa, tekshuruvdan o‘tkazilib, tibbiy tekshirish natijasiga ko‘ra yuqoriga xarakatlanishi haqida yakuniy xulosa beriladi;
- sayyohatga boriladigan joylarini tabiiy yodgorliklarni rekratsion resurs sifatida rasmlari va ular haqida qisqacha izohlarni o‘z ichiga atributlar tayyorlash;
- hududdagi ko‘plab g‘orlarga ham sayyohatlarni tashkil qilish rejalarini ishlab chiqish. G‘orlarga sayyohlar tashrif buyurgan vaqtida, g‘orning xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib boruvchi mutaxasislarni jalg qilish lozim;
- hududdagi buloqlar va ularning xususiyatlari bilan sayyohlarni tanishtirish. Ayrim buloqlarning atrofi obodonlashtirilgan bo‘lib, turistlarning kelib dam olishlari uchun barcha qulayliklar bo‘lsa, ayrim buloq atroflari esa e’tiborsizlik tufayli tashlandiq holga kelib qolgan. Bu buloqlar atrofida obodonlashtirish ishlari olib borib va dam oluvchilar uchun barcha sharoitlar yaratish;
- tog‘li hududlardagi ziyoratgoh joylarni sxematik kartasi tuzib, ushbu yo‘nalish bo‘ylab turistlarning xarakatlanish marshrutlarini belgilash;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alibekov L.A. Zomin milliy bog'i va geoekologik muammolar yechimining geografik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996 y.
3. Og'a Burgutli. Tog' sadolari. –Toshkent: "Mehnat", 1992 y.
4. G'o'dalov M. R. Jizzax viloyati tabiatni va uni muhofaza qilish. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014.
5. G'o'dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021 y.